



UDK: (540):94(5)

Behruz SAYFULLAYEV,

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti dotsenti, PhD

E-mail: sayfullayev.behruz@gmail.com

O‘z FA Tarix instituti katta ilmiy xodimi, G.Ochilova taqrizi asosida

A SCHOLARLY ANALYSIS OF PO‘LAT SOLIEV’S “INDIA UNDER BRITISH RULE”

Annotation

The Jadid movement emerged in Turkestan in the late 19th and early 20th centuries, and its representatives published works in various fields. One of these is the book "India under the Oppression of England" by Pulat Saliev - a prominent Jadid, historian, and the first Uzbek professor of history. This work, which earned recognition from Indian Prime Minister Jawaharlal Nehru, provides a profound analysis of the British conquest of India, the consequences of colonialism, and the national movements of the early 20th century.

Keywords: India, Po‘lat Soliev, England, colonialism, national liberation movements, rebellions, industry.

НАУЧНЫЙ АНАЛИЗ ТРУДА ПОЛАТА СОЛИЕВА «ИНДИЯ ПОД БРИТАНСКИМ ВЛАДЫЧЕСТВОМ»

Аннотация

В конце XIX – начале XX века в Туркестане возникло движение джадидизма, представители которого публиковали труды в различных направлениях. Одним из них является работа известного джадида, ученого-историка и первого узбекского профессора исторических наук Пулата Салиева под названием «Индия под гнетом Англии», удостоившаяся признания премьер-министра Индии Джавахарлала Неру. В данном произведении представлен глубокий анализ британского завоевания Индии, последствий колониального господства и национальных движений начала XX века.

Ключевые слова: Индия, Пулат Салиев, Англия, колониализм, национально-освободительные движения, восстания, промышленность.

PO‘LAT SOLIEVNING “ANGLIYA ZULMI OSTIDA HINDISTON O‘LKASI” ASARI TAHLILI

Annotatsiya

XIX asr oxiri – XX asr boshida Turkistonda jadidchilik harakati vujudga kelib, uning vakillari tomonidan turli yo‘nalishlarda asarlar nashr qilingan. Ulardan biri taniqli jadid, tarixchi olim, tarix fanida birinchi o‘zbek professori Po‘lat Solievning “Angliya zulmi ostida Hindiston o‘lkasi” deb nomlangan Hindiston bosh vaziri Javohirlal Neru e‘tirofiga sabab bo‘lgan asardir. Unda Hindistonning angliya tomonidan bosib olinishi, mustamlaka oqibatlari va 20-asr boshidagi milliy harakatlar chuqur tahlili qilingan.

Kalit so‘zlar: Hindiston, Po‘lat Soliev, Angliya, mustamlakachilik, milliy ozodlik harakatlari, qo‘zg‘alonlar, sanoat.

Kirish. Rossiya imperiyasi zulmi ostida jadidchilik harakati og‘ir va qarama-qarshiliklarga to‘la bo‘lmish davrda o‘z faoliyatini olib bordi. Jadidchilik XIX asr 80-yillari o‘rtalaridan Turkiston o‘lkasida ham tarqalib, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma‘rifiy mazmundagi harakatga aylandi. Millat istiqbolini o‘ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari – hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab chorizmgga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg‘otish – siyosiy-ma‘rifiy jabhadan boshlashga qaror qilishdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri Po‘lat Soliev bo‘lib, 1882-yili Xojitarxondagi (Ashtarxon) Bashmakovka qishlog‘ida dehqon oilasida tug‘ilgan [1]. 1909 yillarda Turkistonga kelgach, uning ma‘rifatparvarlik ishlari asosan ta‘lim va ilm-fan sohasiga qo‘shgan hissasida ko‘rinadi. 1909-yildan boshlab Toshkent va Qo‘qondagi maktablarda tarix, ona tili va matematika fanlaridan dars beradi. Oqqo‘rg‘on tumanida birinchilardan bo‘lib yangi usuldagi maktabni ochadi. Keyinchalik Mirzacho‘l va Jalolobodda ham maktablar ochadi. 1913-yildan u Toshkentdagi rus-tatar o‘quv yurtida o‘qituvchi bo‘lib ishlaydi. Mustamlaka va sovet hukumati davrida tarix, jahondagi siyosiy voqealar, Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy hayot va boshqa turli yo‘nalishlar bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlarni olib borgan [2]. Uning ishlari O‘zbekiston tarixi bilan bog‘liq bo‘lib qolmay Sharq tarixiga oid asarlarida ham ko‘rinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Po‘lat Soliev bir nechta yirik ilmiy asarlar muallifi hisoblanadi. Ular “Angliya zulmi ostida Hindiston o‘lkasi” (1920 va 1926 yillar), “Buxoro mang‘itlar saltanati davrida” (1920 va 1926 yillar), “Buxoro tarixi” (1923), “O‘rta Osiyo tarixi. 1-qism” (1926), “O‘zbekiston ham Tojikiston” (1926), “O‘rta Osiyoda islomning tarqalishi” (1928), “O‘zbekiston tarixi. XV asr birinchi yarmi – XIX asrlar” (1929 yil lotin alifbosida) kabilardir [3]. Ilmiy asarlarining dastlabkisi maqolada tahlil qilish nazarda tutilgan “Angliya zulmi ostida Hindiston o‘lkasi” ostida deb nomlangan.

Tahlil va natijalar. Asarning kirish qismida yozilishicha, “bu kitob 19 inchi yil sharq masalasining qizg‘in yillarida – Angliya, Afg‘oniston urushi vaqtida – yozilgan edi. Ul vaqt Hindiston haqida yangi materiallar maydonda yo‘q edi. Qo‘lda borlari ham kamchiligi bo‘lib, hammasida inqilobg‘acha yozilgan asarlardan iborat edi. Bu kunda esa bir qadar asarlar maydonda bor, lekin oz bo‘lg‘anlig‘i uchun, kerakli ravishda foydalana olmadiq. Vaqtimiz oz bo‘lg‘anlig‘i sababli, bu kitobni yangidan tuzib, tahlil qilib turmodiq. Hindiston to‘g‘risida to‘la bir narsa yozishni ikkinchi bir vaqtg‘a qoldirib, hozircha shu kitobga ba‘zi narsalar ilova qilish bilangina kifoyalandik”[4]. Bundan ko‘rinadiki, asarni yozish 1919 yillari boshlangan, nashri esa 1926 yilga kelib amalga oshgan. Bundan tashqari Hindiston ozodligi masalasidagi 1920 yillari yozilgan “Angliya imperializmi Sharqda”, “Sharqdagi hozirgi ahvol” maqolalari ham olimning

o'sha davrda jahonda bo'layotgan vaziyatni qanchalik yaxshi bilishini ko'rsatadi. Bu asarlari orqali Po'lat Solievni faqat o'zbek davlatchiligi tarixi bilimdoni emas, jahon tarixidan ham juda yaxshi xabardor deyish mumkin. Po'lat Soliev Hindiston tarixida birinchi bo'lib, hind olimlari amalga oshirmagan tadqiqotni yaratdi: u o'sha onlarda Hindistonda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hodisalarni aniq, lo'nda xulosalangan va tahlil etgan holda, bu erda hukm surayotgan inglizlar istibdodining ijtimoiy ildizlarini faktlar asosida isbotlab berdiki, bu narsa hind olimlari tomonidan ideallashtirilib ko'rsatilgan hind-ingliz munosabat-larining yolg'on, puch va mutelikka muhr etilgan qarashlar ekanligiga bir zarba bo'lgan edi. Agar aytish joiz bo'lsa, o'zbek olimining bunday ilmiy puxta va mantiqan to'g'ri tahlil etib bitilgan risolasini Hindistonning atoqli davlat arbobi Javoharlal Neru o'qiganligi va muallifning fikriga tan berib, qoyil qolganligini aytgani bor haqiqatdir [5].

1954 yili Hindiston bosh vaziri Javohirlal Neru tomonidan asar yuqori baholangan. 1955 yil 15 iyun kuni Bosh vazir rasmiy tashrif bilan Toshkentga keladi. Nufuzli mehmon sharafiga O'zbekiston Fanlar Akademiyasi majlislar zalida tantali tadbir tashkil etiladi. Anjuman yakuniga etgach Hindiston bosh vaziri tarjimoni SSSR Tashqi ishlar vaziri o'rinbosari Vasilij Kuznetsovg'a "janob Bosh vazir hurmatli professor Bulat (Po'lat) Soliev janoblari bilan uchrashmoqchi" ekanligini aytadi. Uning olamdan o'tgani haqida ma'lumot berilganda, qabrini ziyorat qilish uchun olib borishlarini so'raydi. Bunga javoban Po'lat Soliev qatag'on qurboni bo'lgani tufayli qabri ma'lum emasligi aytiladi. Bosh vazir uning Hindiston ozodlikni qo'lga kiritishidan 20 – 25 yil avval yozgan maqolalari, risolalari hind vatanparvarlariga juda kuchli ta'sir qilganligi, ularga mustaqillik uchun kurashning asl mohiyatini chuqur anglash, idrok etishda qo'llanma bo'lganligini so'zlab beradi. Bular yuqorida nomlari keltirilgan asarlar edi. Ana shu uchrashuv tafsiloti, Javoharlal Neruning olim haqida chuqur hurmat bilan bildirgan fikrlari xususida Po'lat Solievning qizi Farida Po'latovna Muhiddinova (Solieva)ga ushbu suhbatda ishtirok etgan ToshDU Sharqshunoslik fakultetining o'sha paytdagi dekani A.Hamroev va muloqotda bevosita tarjimonlik qilgan X.Xolmurodova-Barnoxo'jaeva so'zlab bergan [6].

Asar "Hindiston" nomli bob bilan boshlanadi. Unda o'lkani "qimmatli mollari Ovruponing va boshqa qit'alarining bozorlarini to'ldirib ochko'z qironlarning ta'malarin o'ziga tortib kelgan" ligiga oid tarixiy faktlar keltirilib, evropaliklarning qachondan bu hududga qiziq boshlaganligi, portugaliyaliklarning bu erda ilk kelishlari ortidan sodir bo'lgan tarixiy jarayonlar beriladi [7]. Shu o'rinda Angliyaning qay tarzda bu hududni egallab olishiga e'tibor qaratiladi. Inglizlar boshqa raqiblarini, ya'ni gollandlar va fransuzlarni enggach, "Hindistonning o'zini engillik bilan istilo qildilar" deydi. Bunda inglizlarga ikki omil yordam bergan deya xulosa beradi. Bu omillar sifatida "inglizlarga erli

kapitalistlar yordamlashdilar, Hindistonning istilosini engillashtirdilar. Ikkinchidan mamlakatdagi xalqlarning turli sinf, turli dinlar va millatlarga mansub bo'lishi va buning ham juda o'tkinligi inglizlar foydasig'a xizmat etdi. Inglizlar Hindistondag'i bu ahvoldan istifoda etdilar".

Inglizlar Hindistonni to'liq bosib olgandan keyin bu erda sodir bo'lgan ijtimoiy hayotga "oz vaqt ichida inglizlarning xalqqa bo'lg'an zulmi shul darajada sezildiki: "inglizlarning barmog'i "novvob"ning qo'lidan ortiq ezadir" degan so'z Hindistonlilar orasida maqol bo'lib qoldi" deya ta'rif beradi Po'lat Soliev [8].

Asarda yana 1857 yilda ko'tarilgan "Sipohiyalar qo'zg'aloni" haqida ham batafsil ma'lumot beriladi: "Angliyaning zulmiga, haqqoniyatsiz idorasig'a qarshi erli xalq bir necha martaba protistlar, nafratlar bayon etdilar. Hindiston idorasida bo'lg'an adolatsizligi ko'rsatib matbuot va jamiyatlarda otashli maqolalar, nutqlar, yozdiqlar, hatto qo'llarida qurol bilan qarshi chiqdilar. 1857 inchi yil sipohiyalar ixtilosi Angliyaning bir to'qtovsiz hududini kengaytish uchun mustaqil qabilalar va xonliqlarni o'ziga qo'shishi, zulm asosig'a qurilg'an siyosati erli xalqlarning urf-odatini rioya etmasligi, dinlarin, adabiyotlarin tahqir etishi, er haqida adolatsiz qonunlari, erli xalqqa nafrat ko'zi bilan qarashi, erli xalqni shafqatsiz ravishda talashi, ularni idora ishidan yiroqlashdirib mamlakat idorasidan ularni butunlay chetda qoldirishi mazkur yilda sipohiyalar ixtiloli boshlonishig'a sabab bo'ldi" [9]. Bundan tashqari asarning keyingi "Tog", qabilalarining Angliyaga qarshi ixtiloli" deb nomlangan bobida ham inglizlar zulmiga qarshi bo'lib o'tgan qo'zhalonlar to'liq tasvirlanadi. Bu qo'z'g'alonchilarga qarshi Angliya tomonidan berilgan javobni "Beng'ola, Banoras Kalkuta, Bombeylarda quvvatli safarbarlik (mubilizatsiya) yasab, shimol g'arb hududiga, tog' qabilalarining ustiga to'kdi. Kachid va dovonlarni muxosara qildi. Ixtilolchi qabilalar turatug'an o'ring'a hech bir tomondan g'alla va ozuq kirgazmadi, ixtilolchi qabilalar muxosara holda qoldilar. Angliyaning muxosarasi qancha kuchli va shiddatli bo'lsa, qabilalarining qarshiliqlari, urushlarida shu daraja quvvatli va jiddatli bo'ldi" deya ta'riflaydi [10]. Po'lat Soliev ayniqsa, ushbu asarning "Milliy harakatlar" deb nomlangan bobini juda batafsil va boy ma'lumotlar asosida yozadi. Hindistonning mashhur millatchisi va milliy rahbari bo'lib tanilgan Mahatma Gandi faoliyatiga baho beradi [11]. Ozodlik harakatlaridan keyin kitobning oxirgi bobi "Hindiston sanoati" deb nomlangan bo'lib, unda mamlakatdagi ma'danlar, dehqonchilik mahsulotlari, savdo haqida statistik ma'lumotlar keltiriladi [12].

Xulosa qilib aytganda, 52 betdan iborat ushbu asarda Hindiston xalqlarining tarixi, istibdod ostidagi hayot tarzi, madaniyati, iqtisodiyoti muammolarini puxta ilmiy xulosalar bilan yoritib berdi. Undagi mustamlaka zulmi oqibatlarini aytib o'tish orqali olim Turkiston xalqlarining ham qanchalik rus jabr-zulmi ostida ezilayotganligiga ishora qiladi.

REFERENCES

1. Германов В.А. Профессор Пулат Салиев и его время. (Жизн и трагедия основателя узбекской исторической школы). Ташкент. 2002. С.38.
2. Темиров Ф., Солиев Пўлат. Тошкент. 2011.
3. Ахорова Х., Биринчи тарих фанлари доктори. "Маърифат" газетаси. 2002 йил. 5 октябр. 78-сон. 11-бет.
4. Soliev Po'lat. Angliya zulmi ostida Hindiston o'lkasi. Turkiston davlat nashriyoti. Toshkent, 1926 yil. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. PYa U/122. – B. 3.
5. Farrux Temirov. Po'lat Soliev o'zbek tarixshunosligi va sharqshunosligiga nechog'li hissa qo'shgan? <https://zarnews.uz/post/polat-soliev-ozbek-tarixshunosligi-va-sharqshunosligiga-nechog'li-hissa-qo'shgan>
6. Муҳиддинова Ф., Авлодлар қалбида яшайди. "Халқ сўзи" газетаси, 2002 йил 18 октябрь
7. Soliev Po'lat. Angliya zulmi ostida Hindiston o'lkasi. – B. 4-20.
8. Soliev Po'lat. Angliya zulmi ostida Hindiston o'lkasi. – B. 10.
9. Soliev Po'lat. Angliya zulmi ostida Hindiston o'lkasi. – B. 22-24.
10. Soliev Po'lat. Angliya zulmi ostida Hindiston o'lkasi. – B. 28-30.
11. Soliev Po'lat. Angliya zulmi ostida Hindiston o'lkasi. – B. 33-39.
12. Soliev Po'lat. Angliya zulmi ostida Hindiston o'lkasi. – B. 40-43.